

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE CONCEPT OF THE HERO IN ABDULLA QAHHOR'S STORIES AND ITS REPRESENTATION IN A REALISTIC STYLE

Dildora Sheraliyeva*1st-Year Basic Doctoral Student**Namangan State Institute of Foreign Languages**Named after Is'hoqxon Ibrat*dildorasheraliyeva007@gmail.com*Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Abdulla Kahhor's works, concept of the protagonist, literary analysis, realistic style, national character, psychology.

Received: 21.09.25**Accepted:** 22.09.25**Published:** 23.09.25

Abstract: This article presents a scholarly analysis of the concept of the main characters in the short stories of Abdulla Kahhor and his artistic interpretation within the framework of realism. Through the depiction of protagonists in the author's stories, national character, social environment, and human psychology are revealed. The research focuses on stories such as "Patient", "Horror", and "Makhalla", highlighting the characters' inner world and their close connection to the society. The study concludes that in Kahhor's stories, the concept of the heroes harmonizes with the national features of realism, providing a profound artistic expression of the Uzbek people's spiritual world. Furthermore, the article discusses the writer's contribution to the development of 20th century Uzbek literature and the formation of the realistic school.

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI VA UNING REALISTIK USLUBDA IFODALANISHI

Dildora Sheraliyeva*1- kurs tayanch doktoranti**Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti*dildorasheraliyeva007@gmail.com*Namangan, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor ijodi, qahramon konsepsiyasi, adabiy tahlil, realistik uslub, milliy xarakter, psixologizm.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramon konsepsiyasining badiiy talqini va uning

realizm uslubida ifodalanishi ilmiy tahlil qilinadi. Adibning hikoyalarida tasvirlangan qahramonlar orqali milliy xarakter, ijtimoiy muhit va inson ruhiyati ochib berilgan. Tadqiqotda yozuvchining “Bemor”, “Dahshat”, “Mahalla” kabi hikoyalari asos qilib olinib, qahramonlarning ruhiy olami hamda ularning ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Ilmiy izlanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qahhor hikoyalarida qahramon konsepsiyasi realizmning milliy xususiyatlari bilan uyg‘unlashib, o‘zbek xalqining ruhiy olamini teran badiiy ifoda etadi. Shuningdek, adib ijodining XX asr o‘zbek adabiyoti rivojida o‘rni, realistik maktab shakllanishiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

КОНЦЕПЦИЯ ГЕРОЯ В РАССКАЗАХ АБДУЛЛЫ КАХХАРА И ЕЁ ВЫРАЖЕНИЕ В РЕАЛИСТИЧЕСКОМ СТИЛЕ

Дильдора Шералиева

Докторант 1-го курса

Наманганский государственный институт иностранных языков

имени Исхаххона Ибрата

dildorasheraliyeva007@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Творчество Абдуллы Каххара, концепция героя, литературный анализ, реалистический стиль, национальный характер, психологизм.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ концепции героя в рассказах Абдуллы Каххара и её художественной интерпретации в русле реалистического стиля. Через образы героев, изображённых в рассказах писателя, раскрываются национальный характер, социальная среда и внутренняя психология человека. В исследовании в качестве основы рассматриваются такие рассказы, как «Больной», «Ужас», «Махалля», в которых освещаются душевный мир героев и их неразрывная связь с социальной действительностью. Результаты исследования показывают, что в рассказах Каххара концепция героя гармонично сочетается с национальными особенностями реализма, глубоко отражая духовный мир узбекского народа. Также освещается вклад писателя в развитие узбекской литературы XX века и становление реалистической школы.

Kirish

XX asr o'zbek adabiyotining taraqqiyotida Abdulla Qahhor ijodi alohida o'rin egallaydi. U o'zbek nasrida hikoyachilik janrini yangi bosqichga olib chiqqan, qahramon konsepsiyasini realistik asosda talqin qilgan ijodkor sifatida tanilgan. Uning hikoyalari milliy adabiyotimizda realizmning mustahkamlanishiga, adabiy tahlilning chuqurlashishiga xizmat qilgan. Adib hikoyalarida qahramonlar asosan oddiy xalq vakillari bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy muammolari, oilaviy ziddiyatlar, shaxsiy iztiroblar va ruhiy izlanishlar markazida gavdalanadi. Shu bois yozuvchining asarlari o'zbek xalqining turmush tarzi, mentaliteti va milliy ruhiyatining badiiy talqiniga aylanadi. U yaratgan personajlar ideallikdan xoli, ular hayotiy tafsilotlar, kundalik kurashlar va psixologik kechinmalar orqali ochiladi. Asar qahramonlari o'z davrining tipik sharoitida, ammo umumiy insoniy ruhiyatning doimiy muammolari bilan tasvirlanadi. Qahramon konsepsiyasi yozuvchining badiiy-estetik qarashlari markazida turib, insonning jamiyatdagi o'rnini, uning ruhiy dunyosi va ijtimoiy munosabatlari qanday bayon qilinishini belgilaydi. Qahhor hikoyalarida realizm tamoyillari chuqur namoyon bo'ladi. Badiiy timsollarning hayotiyligi, psixologik chuqurligi va tipikligi yozuvchining realistik uslubini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Asardagi qahramon haqidagi qarashlar bu yerda faqatgina badiiy obraz sifatida emas, balki milliy xarakter va ijtimoiy muhitning uzviy uyg'unligida qaraladi. Masalan, "Dahshat" yoki "Bemor" hikoyalarida inson ruhiyati, ijtimoiy muhit ta'siri va shaxsiy iztiroblarning kesishgan nuqtalari badiiy yoritiladi. Shuning uchun ham hikoyanavis yaratgan obrazlar nafaqat o'z davrining, balki butun o'zbek xalqining ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Abdulla Qahhor ijodida qahramon konsepsiyasi - bu jamiyatdagi oddiy odamlarning badiiy obrazini yaratish, ularning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini ko'rsatish va ruhiy kechinmalarini tasvirlash jarayonidir. Mazkur maqolada yozuvchining hikoyalarida qahramon obrazining badiiy talqini qay tarzda aks ettirilgani, u realistik uslubda qanday ifodalanganligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Abdulla Qahhor ijodi yuzasidan o'zbek adabiyotshunosligida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular yozuvchining realizmga mansubligi, qahramon yaratishdagi mahorati va adabiy-estetik qarashlarini turli nuqtai nazarlardan yoritadi. Jumladan, M. Qo'shjonov, N. Karimov, O. Sharafiddinov, A. Rustamov kabi olimlarning tadqiqotlarida yozuvchining adabiy jarayondagi o'rnini, badiiy mahorati hamda milliy adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ilmiy asoslangan. Shuningdek, Qahhor hikoyalarining janriy xususiyatlari, personajlar psixologiyasi va ijtimoiy muhitning tasviri o'zbek nasrida realizmning rivojlanishiga bevosita aloqadorligi bilan izohlanadi. Adabiyotshunoslikdagi nazariy manbalarda (V. Belinskiy, G. Pospelov, M. Baxtin va boshqalar) realizm oqimining estetik tamoyillari, xususan, "tipik sharoitda tipik xarakterlar" yaratish prinsipi alohida ta'kidlanadi. Bu nazariy qarashlar adib ijodini tahlil qilishda muhim

metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki yozuvchi hikoyalaridagi obrazlar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitidan ajralmagan holda, hayotiy voqelik va inson ruhiyatining tabiiy oqimida tasvirlanadi. Ushbu ilmiy izlanishda yozuvchining quyidagi hikoyalari metodologik asoslarda adabiy tahlil qilinadi:

“Bemor” hikoyasi tahlili

1. Psixologik metod nuqtayi nazaridan

“Bemor” hikoyasida Sotiboldi obrazining ruhiy holati chuqur ochilgan. Uning xotini og'ir kasal bo'lgach, u umid va xavotir o'rtasida yashaydi. Sotiboldining ichki iztirobi, qo'rquvi, umidvorlik va tushkunligi hikoya davomida kuchayib boradi. Har safar xotini “ingraganida” Sotiboldining “chakkasiga birov solgandek talvasaga tushishi” - bu psixologik drammatizmning yorqin namunasidir. Sotiboldining qizi ham psixologik jihatdan yetuk obraz. Uning onasiga qilgan samimiy duosi - bolalarcha ishonch va mehr-muhabbatning eng sof ifodasi. Oxir-oqibat qizcha onasining o'limidan bexabar bo'lib, yana o'sha duosini takrorlashi o'quvchini larzaga soladi. Bu epizod inson ruhiyatidagi beg'uborlik va fojيانing uyg'un ifodasi sifatida tahlil qilinadi.

2. Sotsiologik metod nuqtayi nazaridan

Hikoyada kasallikka qarshi kurashning ijtimoiy muammolari ochilgan. Xotining dardiga davo topolmagan Sotiboldi o'sha davr odamlarining qashshoqlik, nodonlik va ilmiy tibbiyotdan yiroqligini ifodalaydi. U avval tabib, baxshi, xipchin bilan savalovchi, tovuq so'yuvchi ayol kabi xurofotli “davo”larga murojaat qiladi. Keyin doktorxona haqida o'ylaydi, lekin u joy kambag'allarga begona, faqat boylarning imkoniyatida bo'lgan maskan sifatida tasvirlanadi. Jamiyatdagi boy-kambag'al tabaqalanishi, sog'liqni saqlash tizimidagi tengsizlik, kambag'allar hayotining chorasizligi sotsiologik tahlil orqali ko'rinadi. Abdug'aniboy kabi xo'jayinlarning beparvoligi va samarasiz “achinishi” jamiyatdagi befarqlikni ochadi.

3. Realistik metod nuqtayi nazaridan

Qahhor voqeani ortiqcha bezaksiz, hayotning o'ziday tasvirlaydi. Hikoyada mubolag'a yo'q, balki kundalik turmushning og'riqli haqiqatlari beriladi. Savat to'qiyotgan Sotiboldi, qizchasining pashshani haydash uchun qo'lida ro'mol bilan uxlab qolishi, kampirning yig'lab duoga chaqirishi kabi detallar voqelikni yanada tabiiy va ta'sirchan qiladi. Bu realizm Qahhor uslubining asosiy belgisi: hayotiy voqeani sodda, ammo chuqur ma'no bilan ifodalash. Hikoya oxirida qizchaning duosi bilan ona o'limining parallel berilishi o'quvchini chuqur o'yga toldiradi.

4. Qahramonlar konsepsiyasi

Sotiboldi - hayot og'irliklariga bardosh beruvchi, ammo chorasizlikdan aziyat chekkan oddiy xalq vakili.

Bemor (xotin) - jamiyatning bechora, davosiz qatlamini ifodalaydi. Uning fojiasi - ko'pchilikning fojiasi.

Qizcha - umid va poklik ramzi. Onasiga qilgan duosi xalqning soddadil ishonchini ifodalaydi.

Abdugʻaniboy - jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va boylarning riyokor achinishini aks ettiruvchi obraz.

“Dahshat” hikoyasi tahlili

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi oʻzbek adabiyotida xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli, kundoshlar fojeasi va ijtimoiy muhitdagi adolatsizlikni koʻrsatadigan yorqin asarlardan biridir. Tadqiqotchilar qayd etishicha, bu hikoya nafaqat oddiy voqea bayoni, balki ayolning erkinlikka intilishi, erkak hukmron jamiyatdagi tengsizlikning fosh etilishi, jamiyat va shaxs oʻrtasidagi ziddiyatlarni ham ifodalaydi. Asarda Dodxo obrazida zoʻravonlik, Unsin obrazida esa erk, qadr-qimmat, orzu va kurash ruhiyati mujassam. Yozuvchi hikoyani folklor va ogʻzaki rivoyatlardan ham ilhomlanib yozganini koʻrish mumkin. Masalan, goʻriston, shamol, arvoq haqidagi xalq tasavvurlari hikoyaning psixologik fonini kuchaytiradi. Shu boisdan ham u adabiyotshunoslar tomonidan nafaqat realistik, balki psixologik dramaga yaqin asar sifatida talqin qilinadi.

1. Psixologik metod nuqtayi nazaridan

Unsinning ruhiy kechinmalari hikoyaning markazida turadi. U Dodxoning adolatsiz muhitidan qutulish, Ganjiravonga qaytish orzusi bilan yashaydi. Goʻristonga borish jarayonidagi qoʻrquv, oʻzini ovutib “Oʻlikning joni yoʻq” deb takrorlashi, maymun bilan boʻlgan dahshatli lahzalar psixologik drammatizmning eng yuqori nuqtasidir. Dodxo esa tashqi qattiqqoʻlligi ortida ichki qoʻrquv va xavotirni yashira olmaydi - tasbehni tez-tez oʻtkazishi, doimiy vahima ichida yashashi bunga misol.

2. Sotsiologik metod nuqtayi nazaridan

Hikoya ayollar hayotini ijtimoiy nuqtayi nazardan ochib beradi. Kundoshlar hayotining ogʻirligi, ayollarning Dodxo hukmiga tobeligi jamiyatning ayollarni xoʻrlovchi qoidalarini ochib tashlaydi. Unsinning ozodlikka intilishi jamiyatdagi yangi avlod ayollarining uygʻonayotgan erkinlik gʻoyasini bildiradi. Dodxoning hokimiyati - zoʻravon erkak hukmronlikning ramzi, Unsinning fojeali taqdiri esa jamiyatdagi ayollar huquqsizligining eng achchiq ifodasidir.

3. Realistik metod nuqtayi nazaridan

Qahhor realistik detallar orqali voqeani hayotiy qiladi: shamolning uvillashi, boʻyraning darchaga urilishi, goʻristondagi qorongʻulik, oʻtin qidirib, qoʻllari qonab ketgan Unsin - bular badiiy haqiqatni jonlantiruvchi detallar. Hikoya oxirida Unsinning Ganjiravonga yetolmay halok boʻlishi - hayotiy fojearning eng tabiiy va mantiqiy yakunidir.

Qahramonlar konsepsiyasi

Dodxo - zoʻravon, ayollarni mulkdek koʻradigan, oʻziga baland bino qoʻygan erkak timsoli.

Unsin - ozodlikka, qadr-qimmatga intiluvchi ayol; uning fojeali taqdiri patriarxal jamiyat qurboni sifatida tasvirlanadi.

Nodirmohbegim - katta kundosh, mehribonlik va ayollik birdamligini ifodalaydi.

“Mahalla” hikoyasi tahlili

1. Psixologik metod nuqtayi nazaridan

Hikoyaning markazida - Hikmat buva obrazi turadi. U umr yo‘ldoshi Rohat buvini yo‘qotgach, ruhiy iztirobga botadi. Ellik uch yil birga yashagan, hayotini mazmunli qilgan inson birdan yo‘qolishi uni ich-ichidan yemira boshlaydi. Hikmat buva kampirining eski kalishini ko‘rib ham, eshitgan har bir tovushdan ham uni eslaydi. Bu Qahhor qahramonining ruhiy sindromini, yolg‘izlik azobini nihoyatda tabiiy ochib beradi. Psixologik dramatismning cho‘qqisi - Hikmat buva o‘ziga go‘r qazitib qo‘yishi. Bu nafaqat o‘limni kutish, balki hayotga bo‘lgan qiziqishning so‘nishi, mehr rishtalarining uzilishi belgisi sifatida talqin etiladi. Shunga qaramay, u mahalla ishlari bilan ovora bo‘lib, go‘yo o‘zini “hayotga qaytarishga” urinadi. Bu esa inson ruhiyatidagi ikki tomonlama kurashni ifodalaydi: umrga chanqoqlik va o‘limni kutish o‘rtasidagi ziddiyat.

2. Sotsiologik metod nuqtayi nazaridan

Hikoya keng ijtimoiy fon bilan bog‘langan. Rohat buvining dafn marosimiga butun mahalla yig‘ilishi, odamlarning uni yaxshi so‘zlar bilan yod etishi - o‘zbek jamiyatidagi mahalla institutining ijtimoiy kuchini ko‘rsatadi. Keyinchalik Hikmat buvaning samovar va “mahalla ro‘zg‘ori” tashabbuslari, odamlarning o‘zaro to‘y-hashar, marosimlarda bir-biriga suyangan holda yashashi ham o‘zbek mahallasining an‘anaviy ijtimoiy mexanizmlarini ochib beradi. Shu bilan birga, ayrim odamlarning ikkiyuzlamachiligi, yolg‘on gaplari (masalan, kotibning gazeta uchun noto‘g‘ri ma‘lumot berishi) ijtimoiy muammolarni ham ko‘rsatadi. Yozuvchi sotsiologik jihatdan mahallani birlik va mehr markazi sifatida yuksak baholaydi, lekin shu tizim ichida uchraydigan manfaatparastlik va loqaydlikni ham tanqid qiladi.

3. Realistik metod nuqtayi nazaridan

Hikoya butunlay hayotiy tafsilotlarga qurilgan. Rohat buvining kasalligi, Hikmat buvaning uyda mayda narsalardan xotini esini ko‘rishi, mahalladagi yig‘ilishlar, idish-tovoqlarni yig‘ish, samovar uchun yugur-yugur - bularning barchasi oddiy hayot manzaralari, lekin o‘quvchiga katta ruhiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qahhor o‘zining realistik uslubiga xos ravishda, voqealarni mubolag‘asiz, hayotning o‘ziday berib, o‘quvchini qahramonlar dardiga sherik qiladi. Ayniqsa, Hikmat buvaning gazetaga borib mahallaning daraxt ekish rejasini tekshirtirishi va yolg‘onni fosh qilishi - yozuvchining jamiyatdagi haqiqatparvarlik g‘oyasini ko‘rsatadi.

4. Qahramonlar konsepsiyasi

Hikmat buva - umr yo‘ldoshini yo‘qotib, ruhiy tanazzulga yuz tutgan, ammo mahalla ishlari faollashib o‘zini ovutishga urinayotgan keksalik va yolg‘izlik ramzi.

Rohat buvi - mehr, sadoqat, mahalla e'zozlagan ona timsoli. Uning o'limi butun jamiyatni larzaga soladi.

Mahalla ahli (o'g'il, kelin, qo'ni-qo'shni, shifokor, cho'tkachi, kotib va boshqalar) - turfa xarakterlar orqali jamiyatning yaxshilik, mehr, hamjihatlik bilan birga yolg'on, loqaydlik va manfaatparastlik kabi illatlari ham ko'rsatiladi.

Natijalar va muhokama

Ilmiy izlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, Abdulla Qahhorning hikoyalari orqali o'zbek realizmining milliy xarakteri va jamiyatdagi turli qatlamlarning ruhiy olami tasvirlanadi. Yozuvchining qahramon konsepsiyasi milliy ruhiyat va ijtimoiy muhitning uzviy bog'liqligi asosida shakllanadi. U yaratgan obrazlar hayotiy tafsilotlar va psixologik nuqtai nazardan ifodalangan bo'lib, realizm uslubida murakkab va teran badiiy obrazlar shakllantiriladi. Tadqiqotda olingan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Qahramonlar va ularning ruhiy olami: Qahhorning qahramonlari ko'pincha oddiy xalq vakillari bo'lib, ularning ruhiy iztiroblari, ijtimoiy sharoitdan kelib chiqadigan qarorlar va muammolar badiiy jihatdan chuqur ochilgan. Ularning har biri jamiyatdagi o'z o'rnini topishga urinishlari, o'z hayotlarini yaxshilash uchun kurashlari bilan o'quvchining e'tiborini jalb etadi. Shuningdek, yozuvchi obrazlarni idealizatsiya qilmaydi, balki ular hayotning o'ziday, haqiqiy, sodda va tabiiy tarzda tasvirlanadi.

Psixologizmning ta'siri: Qahhor hikoyalarida psixologizm alohida o'rin tutadi. Adib qahramonlarining ichki iztiroblarini va ularning ruhiy kechinmalarini badiiy tarzda aks ettirishga katta e'tibor qaratgan. Masalan, "Bemor" hikoyasidagi Sotiboldi va uning xotini o'rtasidagi ruhiy ziddiyatlar, "Dahshat"da Unsinning qo'rquvi va ozodlikka intilishi, "Mahalla"da Hikmat buvaning yolg'izlik va yo'qotish dardlari qahramonlarning ichki olamining aniq va realistik ifodasidir.

Ijtimoiy muhit va qahramonlar o'rtasidagi bog'liqlik: Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramonlar ijtimoiy muhit bilan chuqur bog'langan. Hikoyalar faqat shaxsiy hayotga oid emas, balki jamiyatdagi keng muammolarni, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlarni, boylik va kambag'allik orasidagi masofani ham o'rganadi. "Bemor" hikoyasida kambag'allar va boylar o'rtasidagi farq, "Dahshat"da jamiyatdagi ayollarning taqdiri, "Mahalla"da mahalla tizimining ijtimoiy ahamiyati o'z aksini topgan.

Realizm uslubi: Yozuvchi ijodida realizm tamoyillari qat'iy qo'llaniladi. U har bir obrazni, har bir voqeani mukammal realistik detallar orqali tasvirlaydi. Bu uslub asarlarda badiiy haqiqatni ko'rsatish, voqealarni sodda va tabiiy tarzda ifodalashga imkon beradi. Hikoyadagi oddiy va hayotiy tafsilotlar o'quvchini voqelikka yaqinlashtiradi va qahramonlarning dardini his qilishiga yordam beradi.

Milliy xususiyatlar va qahramon konsepsiyasi: Adibning asarlarida milliy xarakter, o'zbek xalqining urf-odatlarini, psixologiyasi va ichki dunyosi aniq aks etgan. Uning qahramonlari o'zbek xalqining ma'naviy holatini, qadriyatlarini, ruhiyatini to'liq ifodalovchi timsollardir. Ularning iztiroblari va shaxsiy kurashlari, turmush tarzlari, orzulari va yuksalishlari o'zbek xalqining umumiy muammolarini o'zida mujassamlashtiradi.

Abdulla Qahhorning hikoyalaridagi qahramon konsepsiyasi uning realizm uslubini yanada boyitadi va adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholanishiga sabab bo'ladi. Yozuvchi o'z asarlarini faqat badiiy qiymatga ega deb ko'rmaydi, balki ular orqali ijtimoiy masalalarni ko'taradi, xalqning ruhiyatini, jamiyatdagi o'zgarishlarni tasvirlaydi. U yaratgan obrazlar o'z davrining tipik vakillari bo'lib, ularning ruhiy holati va shaxsiy iztiroblari o'quvchini chuqur o'ygatadi. Shu bilan birga, Qahhorning asarlari nafaqat o'zbek xalqining ijtimoiy muammolarini ko'rsatib beradi, balki insoniyatning universal muammolariga ham urg'u beradi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, yozuvchining qahramonlari real hayotdan olingan, ularning ruhiy holatlari hamda ijtimoiy sharoitlarga bo'lgan munosabatlari o'ta tabiiy va ishonarli tarzda tasvirlanadi. Masalan, "Bemor" hikoyasida Sotiboldning ruhiy holati o'zining qashshoqligi, davolash imkoniyatlarining cheklanganligi va xotining og'ir kasalligi bilan bog'liq bo'lib, u orqali kambag'allar hayoti va ularning chorasizligini ko'rsatiladi. "Dahshat"da esa jamiyatdagi ayollarning taqdiri, erkinlikka intilishlari va tengsizlikka qarshi kurashishlari haqida so'z boradi. Yozuvchining realistik uslubi va psixologik tahlilga qaratgan diqqatini e'tiborga olib, uning asarlari faqat adabiy yodgorliklar sifatida qolmaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy holatlarni tahlil qilishda muhim vositaga aylanadi. Shu sababli, Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida realizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan yozuvchi sifatida e'tirof etiladi. Uning asarlari faqat badiiy jihatdan emas, balki ijtimoiy va psixologik tahlilga asoslangan chuqur mazmuni bilan ham qadrlanadi. Hikoyanavisning ijodi, xususan, qahramonlarining badiiy talqini va ularning ruhiy holatlari o'zbek adabiyotidagi realizmning yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yozuvchining asarlari ijtimoiy adolat, inson huquqlari va xalqning shaxsiy va ruhiy kurashlari haqidagi chuqur mushohadalarini aks ettirgan bo'lib, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shuningdek, uning qahramonlari orasidagi ruhiy, ijtimoiy va moral ziddiyatlar o'zbek adabiyotining zamonaviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining eng yirik realist yozuvchilaridan biri bo'lib, uning hikoyalari milliy adabiyotimizda realizm janrining shakllanishi va rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning asarlari, ayniqsa, qahramon konsepsiyasini yaratish va ularni realizm tamoyillariga mos holda tasvirlash borasida o'ziga xos yutuqlarga ega. Adib o'z hikoyalarida, ayniqsa "Bemor", "Dahshat" va "Mahalla" kabi asarlarida, milliy xarakter, inson ruhiyati va jamiyatning ijtimoiy

muhitini chuqur tahlil etgan. Yozuvchining qahramonlari hayotiy va psixologik jihatdan juda murakkab, ular o'z vaqtining tipik vakillari sifatida milliy va ijtimoiy muhitning aks-sadosi bo'lib xizmat qiladi. Qahhorning qahramonlari oddiy xalq vakillaridan tashkil topgan bo'lib, ular ko'pincha o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolari bilan yuzma-yuz keladilar. Ularning har biri hayotdagi qiyinchiliklarni, oilaviy va shaxsiy iztiroblarini o'zlari uchun anglashga, lekin bir vaqtning o'zida ijtimoiy muhitdan o'zini ajrata olmaydi. Yozuvchi, o'zining realizm tamoyillariga sodiq qolgan holda, qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiy holatlarini nozik va chuqur tarzda tasvirlaydi. Shu bilan birga, har bir qahramonning turmush tarziga va uning jamiyatdagi o'rni ta'sir qilgan holda, voqealar rivoji va qahramonlarning kechinmalari har tomonlama o'rganiladi. Adibning qahramonlari va ularning tasvirlanishida hayotning turli qatlamlarini, ijtimoiy muhit va psixologik jarayonlarni birlashtirgan holda, realizmning milliy xususiyatlarini ko'rsatadi. Yozuvchi, har bir obrazni yaratishda, uni o'z davrining tipik vakili sifatida yoritadi, ammo shu bilan birga, uni insoniylikning umumiy qiyofasi orqali tasvirlaydi. Uning ijodida, realizm tamoyillarining milliy xususiyatlari va psixologizmning chuqurligi o'zaro uyg'unlashib, o'zbek xalqining ruhiy va ijtimoiy dunyosini teran badiiy ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, hikoyanavisning asarlarida realizmning asosiy prinsiplariga sodiqlik va har bir qahramonning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish uning ijodida katta ahamiyatga ega. Yozuvchi, har bir asarida, ijtimoiy muhitni, milliy xarakterni, insonning ruhiy dunyosini va uning o'ziga xos ziddiyatlarini tasvirlashda realizmning badiiy uslublarini samarali qo'llagan. Shu tarzda, adibning ijodi XX asr o'zbek adabiyotining rivojida muhim rol o'ynadi va o'zbek realizmining shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhorning hikoyalari, uning qahramonlari va ularning tasvirlanishidagi realizm, o'zbek adabiyotida yangi bir bosqichni boshlab berdi. Uning ijodi jamiyatning ijtimoiy, psixologik va ruhiy muammolarini ochib berishda nafaqat o'z zamonasi, balki butun xalqning dardini ifodalashga qaratilgan. Shu sababli, uning ijodini o'rganish va uning asarlarini tahlil qilish nafaqat o'zbek adabiyotshunosligi, balki xalqning tarixiy va madaniy rivojlanishini tushunishda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qahhor. A. Tanlangan hikoyalar - Toshkent.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
2. Qahhor. A. Tanlangan asarlar. 5 jildlik - Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
3. Ergasheva. N. For Abdulla Kahhor's 100th anniversary - Tashkent.: Uzbekistan Today, 2007.
4. Umurov. H. Adabiyotshunoslik nazariyasi - Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

5. Sanjar. S. So‘z san’ati jozibasi - Toshkent.: O‘zbekiston, 1996.
6. Qo‘shjonov. M. Abdulla Qahhor mahorati - Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984.